

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14827368>

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA HARFLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Qambaraliyeva Zarina

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yonalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti,
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinflarda harflarni o‘qitish metodikasi hamda o‘zbek tili alifbosi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tovush, harf, unli undosh tovushlar, talaffuz, fonetika, tilshunoslik, og‘zaki nutq, sirg‘aluvchi.

Аннотация: В данной статье рассматривается преподавание письма в начальных классах. Приведена информация о методике и узбекском алфавите.

Ключевые слова: Звук, буква, гласные, согласные, произношение, фонетика, лингвистика, устная речь.

Anotation: In this article, the teaching of letters in primary grades information about the methodology and the alphabet of the Uzbek language.

Key words: Sound, letter, vowel consonants, pronunciation, phonetics, linguistics, colloquial, slippery.

Tovush - nutq jaroyonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq parchadir. Biz tovushlarni aytamiz va eshitamiz. Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi fonetika (yunoncha-phone tovush”degani) deyiladi. Harf- tovushning yozuvdagi shartli belgisidir. Harflarni ko‘ramiz, yozamiz, o‘qiymiz. Harflar fonemalarning yozuvdagi aksi, tasviridir.

1. Savod o‘rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unilardan boshlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: *a, o, i, e, u, o‘*. O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: *b, d, f, g, h, j* (jurnal), *j* (jo‘ja), *k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng*. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi. Harf irikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. *J* harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi *j* tovushini o‘rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko‘nikmalar hosil qilinadi, keyingi darsda esa sirg‘aluvchi *j* tovushi va uning talaffuzi o‘rgatiladi. So‘ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi.

Tovushlar va ularning tasnifi: Tovushlar og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: unli va undosh.

Unli tovushlar - og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramay hosil bo‘ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Unli tovushlar tasnifi-ular quyidagicha tasnif qilinadi:

I. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra:

a) old qator b) orqa qator

II. Tilning vertikal harakatiga ko‘ra:

a) yuqori tor unililar;

b) o‘rta keng (keng) unililar;

c) quyi keng unililar.

III. Lablarning ishtirokiga ko‘ra:

a) lablangan;

b) lablanmagan.

Undosh tovushlar - og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchrab paydo bo‘ladigan, tarkibi fatsat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg‘alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o‘tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli Undosh tovushlar hosil bo‘ladi. Dunyodagi har bir til o‘ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi konsonantizm (lot. *consonans* — undosh tovush) eyiladi. Undosh tovushlar 3 tomonlama tasnif qilinadi.

I. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar 3xil bo‘ladi:

- a) lab undoshlari;
- b) til undoshlari;
- c) bo‘g‘iz undoshlari.

II. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar 3xil bo‘ladi:

- a) portlovchilar;
- b) sirg‘aluvchilar;
- c) qorishiq (affrikat)

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra 2 xildir:

- a) jaranglilar;
- b) jarangsizlar.

O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi.

1-sinf o‘quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

- a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;
- b) harfni ko‘ramiz, o‘qiyamiz va yozamiz;
- d) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

O‘quvchilar ko‘pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo‘l qo‘yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o‘rgatish zarur:

- 1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, maktab so‘zidagi *b* harfi *p* tovushini, maktabim so‘zidagi *b* harfi *b* tovushini ifodalaydi);
- 2) *jo‘ja*, *jajji* so‘zlaridagi *j* tovushi (jarangli, portlovchi) ham, *jurnal*, *viydon* so‘zlaridagi *j* tovushi (jarangli, sirg‘aluvchi) ham bitta *j* harfi bilan ifodalanadi;
- 3) *tong*, *keng* so‘zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (*ng*) ikki harf.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi harfni eslab qo'shguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi.
2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunicha idrok eta boshlaydi.
3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi-da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.
4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi. O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi. Yozuvga o'rgatish o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri qo'yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e'tibor bilan boshlanadi. Ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligi mo'ljallanishi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o'tkazishni taqozo qiladi. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" – degan edi buyuk allomalarimizdan biri. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinfda egallangan bilimni kelgusidagi bilimlar uchun poydevor deb atasak, noto'g'ri bo'lmaydi.

Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, qurilajak imorat ham shunchalik ko'p yil, balki asrlarga ham asqotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim- tarbiya beruvchi o'qituvchiga juda ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi erkin fikrli, keng dunyoqarashli, izlanuvchan, intiluvchan, yangiliklarni tezda ilg'ab oluvchi va innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lishi lozim. Shundagina u ko'zlagan maqsadiga yetishadi.

Xulosa o‘rinda shuni keltirishimiz mumkinki, o‘tib borayotgan har bir yosh avlod har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishmogi, ushbu ozod va obod vatanimizga, ulug‘ ota-bobolarimizga munosib farzand bo‘lib o‘tib unmog‘i - lozim. Buning uchun yoshligidan, mustahkam bilim olib borishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Azimova, K.Mavlonova 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” Toshkent 2021- yil
2. I.Azimova, K.Mavlonova 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” Toshkent 2021-yil
3. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G‘ulomova, Sh, Yo‘ldosheva, G.Xolboyeva “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi “darslik Toshkent. “Ishonchli hamkor “2021.
4. www.ziyonet.uz